JOURNALFLEDU.COM
Foreign Languages in Uzbekistan

Scientific Electronic Journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2026, vol. 12, No 5 (70), pp. 185–201.
https://journalfledu.com
ISSN: 2181-8215 (online)

EXPERT CROWDSOURCING IN DIGITAL JOURNALISM: THEORETICAL APPROACHES AND CONCEPTUAL BOUNDARIES

Sitora Bakhodir qizi Xolmatova

Doctoral Researcher (PhD)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
sitora.xolmatova@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-8036-1130
https://doi.org/10.36078/1794218270

(received: August 15, 2026; revised: October 08, 2026; accepted: October 20, 2026)

Abstract. This article examines the conceptual boundaries of engaging expert knowledge through open calls in digital journalism. The research problem concerns the use of a single term to describe different forms of expert engagement and the conflation of the defining features of the process with the requirements governing its quality. The study aims to formulate an author-proposed definition of expert crowdsourcing, distinguish it from related practices, and develop a framework for editorial assessment. It adopts an integrative theoretical analysis of purposively selected literature. The corpus comprises 20 publications issued between 2005 and 2026: 15 scholarly works directly relevant to the topic, one cross-disciplinary study selected for a comparative examination of participation barriers, three methodological sources, and one journalistic publication addressing the origins of the term. English- and Russian-language sources were compared, including contributions by researchers from Russia, Kazakhstan, and Uzbekistan. Through conceptual analysis, classification, and synthesis, expert crowdsourcing is defined as a process in which a journalistic initiator issues an open digital call to potential specialists who have not been individually selected in advance, seeking their specialised knowledge and experience for a specified journalistic task. Five defining features of the process are distinguished from the requirements used to assess its quality. The analysis differentiates individual expert selection, collective requests within bounded groups, and open expert crowdsourcing, while treating network-based sourcing as a method that may connect these forms. A two-level editorial assessment framework is proposed, separating the verification of an expert's competence from the verification of the information provided. Within the proposed model, receiving only one response or finding submitted responses unsuitable for publication does not negate the initial openness of the call. The study's contribution lies in applying existing theoretical approaches to the open sourcing of expert knowledge and systematically distinguishing defining criteria from quality requirements. A six-

stage operational model provides guidance for formulating tasks, assessing experts, verifying information, and establishing transparent conditions of participation. The findings are theoretical; the model's effectiveness has not been empirically assessed. Purposive source selection, limited linguistic and geographical coverage, and the absence of comprehensive quantitative records of the initial literature search constrain the generalisability of the conclusions. Future research will test the model through an analysis of open calls issued by Uzbek online news outlets and interviews with editorial staff.

Keywords: expert crowdsourcing; digital journalism; open call; expert knowledge; audience participation; journalistic verification; expert competence; editorial selection; conceptual model.

RAQAMLI JURNALISTIKADA EKSPERT KRAUDSORSINGI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA KONSEPTUAL CHEGARALAR

Sitora Bahodir qizi Xolmatova

Doktorant (PhD)
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada raqamli jurnalistikada ekspert bilimini ochiq chaqiriq orqali jalb etishning konseptual chegaralari tadqiq qilinadi. Muammo ekspert fikridan foydalanishning turli shakllari bir xil nom bilan izohlanishi hamda jarayonning tashkiliy belgilari bilan uning sifatiga qo‘yiladigan talablar qo‘shilib ketishi bilan bog‘liq. Tadqiqotning maqsadi ekspert kraudsorsingiga mualliflik ta’rifini berish, uni turdosh amaliyotlardan farqlash va tahririy baholash modelini ishlab chiqishdir. Ish maqsadli tanlangan adabiyotlarning integrativ nazariy tahliliga asoslanadi. Korpus 2005–2026-yillarda nashr etilgan 20 ta materialdan iborat: mavzuga bevosita oid 15 ta ilmiy ish, ishtirok to‘siqlarini qiyoslash uchun tanlangan bitta sohalararo tadqiqot, uchta metodologik manba va atamaning kelib chiqishini yorituvchi bitta publitsistik material. Ingliz va rus tillaridagi manbalar, jumladan, Rossiya, Qozog‘iston va O‘zbekiston tadqiqotchilarining qarashlari qiyoslandi. Tushunchaviy tahlil, tasniflash va konseptual sintez asosida ekspert kraudsorsingi jurnalistik tashabbuskor belgilagan vazifaga maxsus bilim va tajribani jalb qilish uchun potensial mutaxassislarning oldindan shaxsma-shaxs tanlanmagan doirasiga ochiq raqamli murojaat qilish jarayoni sifatida talqin etildi. Jarayonni aniqlovchi beshta belgi uning sifatini baholovchi talablardan ajratildi. Individual ekspert tanlovi, chegaralangan guruhga umumiy murojaat va ochiq ekspert kraudsorsingi o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatildi; tarmoqli izlash ushbu shakllarni bog‘lashi mumkin bo‘lgan usul sifatida izohlandi. Ekspertlik vakolati va ekspert taqdim etgan axborotni alohida tekshirishga asoslangan ikki darajali tahririy baholash taklif etildi. Mualliflik modelida chaqiriqqa bitta javob kelishi yoki javoblarning nashr uchun yaroqsiz deb topilishi jarayonning dastlabki ochiqligini bekor qilmasligi asoslandi. Ilmiy hissa mavjud nazariy yondashuvlarni ekspert bilimini ochiq izlash jarayoniga

tatbiq etib, aniqlash mezonlari va sifat talablarini izchil tizimlashtirishdan iborat. Olti bosqichli amaliy model tahririyatlarga vazifani shakllantirish, ekspertni baholash, axborotni tekshirish va ishtirok shartlarini shaffof belgilash uchun yo‘nalish beradi. Natijalar nazariy xarakterga ega; model samaradorligi empirik o‘lchanmagan. Korpusning maqsadli tanlangani, til va hududiy qamrovning cheklanganligi hamda dastlabki qidiruv bo‘yicha to‘liq miqdoriy qaydlarning mavjud emasligi xulosalarni umumlashtirish doirasini chegaralaydi. Keyingi bosqichda modelni O‘zbekiston internet nashrlarining ochiq chaqiriqlari va tahririyat intervyulari asosida sinash ko‘zda tutiladi.

Kalit so‘zlar: ekspert kraudsorsingi; raqamli jurnalistika; ochiq chaqiriq; ekspert bilimi; auditoriya ishtiroki; jurnalistik tekshiruv; ekspertlik vakolati; tahririy saralash; konseptual model.

Kirish

Jurnalistga muayyan masalani tushuntirib bera oladigan mutaxassis kerak bo‘lganda, u odatda tanish manbaga murojaat qiladi yoki yangi ekspert izlaydi. Raqamli muhit bu izlashning yana bir yo‘lini yaratadi: jurnalist kim javob berishini oldindan bilmagan holda, savolini potensial bilim egalariga ochiq taqdim etishi mumkin. Maqolamiz uchun muhim savol ana shu vaziyatdan kelib chiqadi: ekspert izohi so‘rash qachon kraudsorsingga aylanadi?

Raqamli kommunikatsiya texnologiyalari tahririyat, axborot manbalari va auditoriya o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zgartirdi. Auditoriya endi axborotni faqat qabul qilmay, uni yaratish, muhokama qilish va tarqatishda ham qatnashadi. Biroq yangilik ishlab chiqarishning barcha bosqichlari bir xil darajada ochilmagan: internet nashrlarida ishtirok ko‘pincha muhokama bosqichida faollashadi, asosiy tahririyat qarorlari esa professional jurnalistlar nazoratida qoladi [Domingo et al., 2008: 326–327, 332–333]. Ishtirokiy jurnalistikada professional va havaskor ishtirokchilar faoliyati yaqinlashsa-da, axborotni tanlash va yakuniy shaklga keltirish mas’uliyati tahririyat uchun dolzarbligicha qoladi [Deuze et al., 2007: 322–323]. Hermida va Thurman ham foydalanuvchi kontenti kengayishi moderatsiya, ishonch va huquqiy javobgarlik masalalarini kuchaytirganini ko‘rsatadilar [Hermida & Thurman, 2008: 343–344].

Kraudsorsing nazariyasida aniq vazifa va ochiq chaqiriq markaziy o‘rin tutadi [Brabham, 2008: 75–76; Estellés-Arolas & González-Ladrón-de-Guevara, 2012: 193–197]. Jurnalistikada esa bu mexanizm auditoriyada tarqalgan bilimni izlash bilan bog‘lanadi [Muthukumaraswamy, 2010: 50–51; Aitamurto, 2016: 280–281]. Mazkur yondashuvlar ekspert bilimini jalb qilishni tushuntirish uchun asos yaratadi, lekin ekspertning kimligi, murojaatning ochiqligi va olingan javobning sifati alohida tahlil qilinishi kerak.

Ekspert mediakontenti va jurnalist–ekspert aloqalari yuzasidan ishlar mavjud [Albæk, 2011; Kaminskaia & Erokhina, 2023]. Biz aniqlashtirishni

zarur deb bilgan jihat — mutaxassisni topish mexanizmi bilan uning bilimidan mas'uliyatli foydalanish talablarini bir-biridan ajratish va o‘zaro bog‘lashdir. Aks holda, ochiq chaqiriq orqali yig‘ilgan, lekin yetarli tekshirilmagan javoblarni qanday tasniflash masalasi javobsiz qoladi.

Maqolaning maqsadi ekspert kraudsorsingining konseptual chegaralarini aniqlash va uni tahririy baholash modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti — ekspert bilimini jurnalistikaga jalb etishni tushuntiruvchi ilmiy yondashuvlar; predmeti — ochiq chaqiriqning tashkiliy belgilari, ekspertni aniqlash usullari va tekshiruv talablari. Asosiy savol: ekspert kraudsorsingini aniqlash uchun qaysi belgilar zarur va uning sifatini baholash uchun qanday qo‘shimcha talablar kerak?

Nazariy asoslar va yondashuvlar muhokamasi

Ochiq chaqiriq va bilim izlash. “Crowdsourcing” atamasi dastlab J. Howe tomonidan “crowd” va “outsourcing” birliklarining birikmasi sifatida qo‘llanib, tashkilot tomonidan bajarib kelingan vazifaning ochiq chaqiriq vositasida oldindan aniq belgilanmagan keng ishtirokchilar guruhiga taklif qilinishini ifodalagan [Howe 2006]. Mazkur yondashuvda ochiq chaqiriq va potensial ishtirokchilar doirasining kengligi kraudsorsingni vazifani an’anaviy ijrochiga topshirishdan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlar hisoblanadi.

Brabham kraudsorsingni onlayn muhitdagi taqsimlangan muammo yechish va ishlab chiqarish modeli sifatida izohlaydi [Brabham, 2008: 75–76]. Estellés-Arolas va González-Ladrón-de-Guevara esa vazifa, ishtirokchilar, tashabbuskor, raqamli muhit, ochiq chaqiriq va tomonlar manfaatini o‘zaro bog‘liq unsurlar sifatida umumlashtiradilar [Estellés-Arolas & González-Ladrón-de-Guevara, 2012: 193–197]. Bu qarashlardan ekspertlarni jalb etish uchun ikki xulosa chiqaramiz: maxsus bilim talabi ishtirokchilar doirasini toraytirishi mumkin; biroq malaka sharti bilan oldindan shaxsma-shaxs tanlash bir xil hodisa emas.

Aitamurtoning bilim izlashga qaratilgan yondashuvi ushbu farqni jurnalistik vazifaga bog‘lash imkonini beradi [Aitamurto, 2016: 286–289]. Jurnalist tayyor manbalar ro‘yxatidan javob izlash bilan cheklanmay, muammo haqida bilimga ega, lekin o‘ziga hali tanish bo‘lmagan shaxsni aniqlashi mumkin. Biz ekspert kraudsorsingining ahamiyatini aynan shu imkoniyatda ko‘ramiz. Ko‘p javob olish foydali bo‘lishi mumkin, ammo murojaatning tashkiliy xususiyatini javoblarning soni bilan o‘lchash yetarli emas.

O‘zbekistondagi nazariy muhokama bilan bog‘liqlik avvalgi ishimizda ajratilgan jurnalistik tashabbus, ochiq chaqiriq va auditoriya resurslarini birlashtirish belgilarida namoyon bo‘ladi [Kholmatova, 2026: 371]. Ushbu

maqolada o‘sha doiradan maxsus bilim resursi ajratib olinadi. Natijada umumiy auditoriya ishtiroki haqidagi savol ekspertni izlash va baholash masalasigacha aniqlashtiriladi.

A. E. Bazanova va V. A. Tulisova kraudsorsingni fuqarolik jurnalistikasida, xususan, surishtiruv uchun ishtirokchilar imkoniyatlarini birlashtirish vositasi sifatida ko‘rib chiqadilar [Bazanova & Tulisova, 2014: 116–117]. Ularning yondashuvi professional tahririyatdan tashqarida ham jurnalistik ahamiyatga ega hamkorlik yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Biroq bu yondashuvni ekspert kraudsorsingiga to‘liq ko‘chirish mumkin emas: voqea haqida axborot yig‘ish bilan shu voqeani maxsus bilim asosida izohlash turli vazifalardir. Biz uchun ishtirokchining faolligidan tashqari, undan aynan qanday bilim so‘ralayotgani ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

T. L. Kaminskaya va O. V. Yeroxinaning tadqiqotida mediasohadagi kraudsorsing ekspert guruhlarini ham qamrab oluvchi hamjamiyatning shakllanishi bilan bog‘lanadi. Mualliflar Pressfeed platformasida ekspert sifatida to‘rt oylik ishtirok tajribasini tavsiflaydilar; jurnalistik so‘rovlar orqali mutaxassislarni topish va javoblarni tanlash jarayonini yoritadilar [Kaminskaia & Erokhina, 2022: 101, 105–106]. Ushbu ish ekspert hamkorligini faqat kontent olish emas, davomli aloqa nuqtayi nazaridan ham ko‘rishga imkon beradi. Bizning modelimiz esa shu aloqaning alohida qismi — muayyan jurnalistik vazifa bo‘yicha chaqiriq va javobni — tahlil birligi sifatida ajratadi.

Mazkur olimlarning ekspert mediakontentiga bag‘ishlangan keyingi ishida ekspert bilimi materialni to‘ldirishi yoki kontentning asosini tashkil etishi muhokama qilinadi [Kaminskaia & Erokhina, 2023: 24–25, 35–36]. Shu o‘rinda mahsulot bilan jarayonni farqlash zarur: ekspert izohiga tayangan maqola individual suhbat natijasida ham yaratiladi. Demak, matnda ekspertning mavjudligi uning kraudsorsing orqali topilganini isbotlamaydi. Buni bilish uchun murojaat qanday tashkil etilganiga qaytish kerak.

Qozog‘istonlik E. M. Muxametkaliyeva va A. J. Bastaubayeva “Ochiq normativ-huquqiy hujjatlar” portalidagi jamoatchilik ishtirokini o‘rganib, texnik kirish talablari, maxsus bilim zarurati, murakkab kasbiy til va motivatsiya yetishmasligi kabi to‘siqlarni qayd etadilar [Mukhametkalieva & Bastaubaeva, 2018: 138]. Bu jurnalistika haqidagi tadqiqot emas; undan tahririyatlar faoliyati haqida bevosita dalil sifatida foydalanmaymiz. U ochiqlikni baholashda qo‘llanadigan qiyosiy savolni yuzaga chiqaradi: murojaat e’lon qilingan bo‘lsa ham, kerakli bilimga ega odam unga amalda javob bera oladimi? Shu asosda, biz formal ochiqlik bilan amaliy foydalanish imkoniyatini alohida baholashni taklif qilamiz. Chaqiriqqa javob berish uchun ro‘yxatdan o‘tish talab etilishi o‘z-o‘zidan jarayonni yopiq qilmaydi. Ammo faqat shaxsiy taklif asosida qabul qilinadigan

a’zolik, bajarib bo‘lmaydigan texnik talab yoki mavzuga aloqasiz malaka cheklovi potensial ishtirokchilarni chetlatishi mumkin. Ushbu farqlash mualliflik modelining bir qismi hisoblanadi.

Ekspertlik va manbani baholash. Ekspert kraudsorsingini nazariy jihatdan asoslash uchun “ekspert” va “ekspert bilimi” tushunchalarining mazmunini aniqlash zarur. M. Hetmański ekspert bilimining nazariy-deklarativ va amaliy-protseduraviy tarkibiy qismlardan tashkil topishini ko‘rsatadi. Olimning fikricha, ekspertlik nafaqat shaxsning bilim, tajriba va kognitiv qobiliyatlariga, balki uning ijtimoiy hamda institutsional mavqeyiga ham bog‘liq [Hetmański, 2018: 11–12].

Carpenter va Kanver jurnalistlarning o‘z ekspertligini ifodalashini tahlil qilib, ta’lim, tajriba, ixtisoslashuv va kasbiy ko‘nikmalar kabi ko‘rsatkichlarni muhokama qiladilar [Carpenter & Kanver, 2017: 198–199]. Ushbu ko‘rsatkichlarning boshqa soha ekspertlariga tatbiqi bizning konseptual moslashtirishimizdir. Diplom yoki tashkilotdagi lavozimni yakka holda yetarli dalil deb qabul qilmaymiz: ekspertning tayyorgarligi aynan berilayotgan savolga mos kelishi kerak.

Albæk tadqiqotida ekspert bilan aloqalarning qariyb 90 foizi jurnalist tashabbusi bilan boshlangani qayd etilgan [Albæk, 2011: 335–336]. Bu natija jurnalistning aloqa o‘rnatishdagi faol rolini ko‘rsatadi; uning o‘zi ekspertlar faqat tanishlar orasidan tanlanganini isbotlamaydi. Shu sababli tashabbus manbayi va ekspertni tanlash usulini alohida ko‘rib chiqamiz. Reichning manba ishonchliligiga doir yondashuvi ham jurnalistning manbaga bergan bahosi bilan axborotning daliliy asosini aynanlashtirmaslik zaruratini yuzaga chiqaradi [Reich, 2011: 51–52].

Material va metodologiya

Tadqiqot maqsadli tanlangan adabiyotlarning integrativ nazariy tahlili sifatida bajarildi. Snyder manbalarni izlash, tanlash va sintez qilishning shaffof bayonini ta’kidlaydi [Snyder, 2019: 333–335]. Whittemore va Knafl turli turdagi dalillarni birlashtirish imkoniyatini, Torraco esa integrativ sharhning konseptual natija berishi zaruratini yoritadi [Whittemore & Knafl, 2005: 546–548; Torraco, 2005: 356–358]. Ushbu ishda maqsad mavjud qarashlarni umumlashtirish bilan birga, ular o‘rtasidagi farqlardan foydalanib tahliliy model tuzishdir.

Bibliografik korpus jami 20 ta materialni qamrab oladi: mavzuga bevosita aloqador 15 ta ilmiy ish, Qozog‘istondagi ishtirok to‘siqlariga bag‘ishlangan bitta sohalararo tadqiqot, integrativ tahlilga oid uchta metodologik ish va J. Howening tarixiy-konseptual materiali. Nashrlar oralig‘i 2005–2026-yillardir. Manbalar ingliz va rus tillarida bo‘lib, Rossiya, Qozog‘iston hamda O‘zbekiston tadqiqotchilarining ishlari ham

kiritilgan. Nashr tili bilan tadqiqotning hududiy mansubligi bir xil ko‘rsatkich sifatida talqin qilinmadi. Tahlil birligi alohida muallifning nomi emas, tadqiqot savoliga javob beruvchi tushuncha, mezon yoki xulosadir. Dastlab ochiq chaqiriq va ekspert bilimiga doir belgilar ajratildi; keyin ular murojaatning tashkil etilishi, jalb qilinadigan resurs va tahririy baholash bo‘yicha qiyoslandi. Yakunda jarayonni aniqlash belgilari bilan sifat talablari ajratilib, quyidagi sintez jadvali tuzildi. Jadvaldagi modelga oid xulosalar manbalarning aynan takrori emas, muallif talqinidir.

1-jadval

Nazariy manbalardan mualliflik modeliga o‘tish

Manbalar	Tahlil uchun tayanch	Modeldagi mualliflik qarori
Howe, 2006; Brabham, 2008; Estellés-Arolas va González-Ladrón-de-Guevara, 2012	Vazifa va ochiq chaqiriq	Ochiqlik javoblar sonidan alohida baholanadi.
Muthukumaraswamy, 2010; Aitamurto, 2016; Kholmatova, 2026	Auditoriya bilimi va jurnalistik maqsad	Maxsus bilimga yo‘naltirilgan vazifa ajratiladi.
Bazanova va Tulisova, 2014; Kaminskaia va Erokhina, 2022, 2023	Fuqarolik ishtiroki, mediahamjamiyat va ekspert kontenti	Ishtirok shakli, bilimni topish jarayoni va mahsulot farqlanadi.
Hetmański, 2018; Carpenter va Kanver, 2017; Reich, 2011	Ekspertlik va manbani baholash	Shaxs vakolati va javobning daliliy asosi alohida tekshiriladi.
Mukhametkalieva va Bastaubaeva, 2018	Ishtirok etishga to‘sqinlik qiluvchi omillar	Formal ochiqlik va amaliy kirish imkoniyati farqlanadi; tatbiq qiyosiydir.

Dastlabki qidiruv natijalari va rad etilgan materiallar soni bo‘yicha to‘liq retrospektiv qaydlar mavjud emas. Shu sababli ish tizimli adabiyotlar sharhi yoki MDH tadqiqotlarining to‘liq xaritasi sifatida taqdim etilmaydi. Manbalarni tanlash va talqin qilish muallif qaroriga bog‘liq; mustaqil kodlovchilar kelishuvi o‘lchanmagan. Keltirilgan shartli vaziyatlar tushunchalarni izohlash uchun xizmat qiladi va empirik kuzatuv sifatida hisoblanmaydi.

Tadqiqot natijalari

Mualliflik ta’rifi va aniqlash mezonlari. Ekspert kraudsorsingi — jurnalist, tahririyat yoki boshqa jurnalistik tashabbuskor belgilagan vazifani bajarish uchun potensial mutaxassislarning oldindan shaxsma-shaxs tanlanmagan doirasiga ochiq raqamli chaqiriq yo‘llash orqali maxsus bilim

va tajribani jalb etish jarayonidir. Ta’rifga ko‘ra, tashabbuskor jurnalistik maqsadni va vazifani belgilaydi; ishtirokchi esa o‘z bilimiga tayangan holda javob berishga qaror qiladi. “Boshqa jurnalistik tashabbuskor” deganda jurnalistlar konsorsiumi, faktcheking loyihasi yoki tahririyat nomidan so‘rov tarqatadigan vositachi nazarda tutiladi. Platformaning mavjudligi yetarli emas: chaqiriqning jurnalistik vazifa bilan bog‘liqligi ko‘rsatilishi kerak.

2-jadval

Ekspert kraudsorsingini aniqlash belgilari

Belgi	Amaliy tekshirish savoli
Jurnalistik tashabbus	So‘rovni jurnalistik faoliyat yurituvchi yoki uning nomidan ishlovchi subyekt tashkil etganmi?
Aniq vazifa	Ishtirokchi qanday savolga, qaysi shaklda javob berishini biladimi?
Ochiq raqamli chaqiriq	Tegishli bilimga ega, avvaldan shaxsma-shaxs tanlanmagan mutaxassis javob bera oladimi?
Maxsus bilim yoki tajriba talabi	Vazifa oddiy munosabat bildirishdan tashqari sohaga oid bilimni talab qiladimi?
Jurnalistik natijaga yo‘naltirilganlik	Bilim jurnalistik mahsulot yoki tadqiqot jarayoni uchun jalb etilyaptimi?

Ushbu belgilar model doirasida birgalikda qo‘llanadi. Bir nechta muqobil javob olish imkoniyati ochiq chaqiriqning oqibati sifatida qaraladi; u alohida majburiy son mezoniga aylantirilmaydi. Bitta javob kelganida tashabbusning natijadorligi cheklanishi mumkin, lekin chaqiriqning ochiq tashkil etilgani o‘zgarmaydi. Umuman javob olinmasa, ekspert bilimi jalb etilmagan kraudsorsing tashabbusi haqida gapirish aniqroq bo‘ladi.

Jarayonni aniqlash mezonlariga axborotning albatta to‘g‘ri chiqishi shartini kiritmadik. Aks holda, ochiq chaqiriq orqali olingan javobning xatoligi aniqlanganda jarayonning nomi ham o‘zgarib qoladi. Bizningcha, bunday holatni sifatsiz yoki tekshiruvda kamchiligi aniqlangan ekspert kraudsorsingi sifatida baholash izchilroq. Bu qaror tekshiruvni ixtiyoriy qilmaydi: jurnalistik mahsulotda foydalanishdan oldin tekshiruv zarur, ammo u hodisani tasniflashdan boshqa vazifani bajaradi.

Ekspertni topish shakllari va ochiqlik chegarasi. Ekspert izlash usullarini farqlashda aloqa vositasidan ko‘ra ishtirokchining qanday tanlanishiga e’tibor qaratamiz (3-jadval). Telefon, elektron xat yoki messenjerning o‘zi murojaatning ochiq yoki yopiq ekanini belgilamaydi. Bir xil messenjerda jurnalist tanlagan kishiga individual savol ham

yuborishi, noma’lum mutaxassislarga umumiy chaqiriq ham e’lon qilishi mumkin.

3-jadval
Ekspertni jalb etish shakllari

Mezon	Individual tanlov	Chegaralangan guruhga murojaat	Ochiq ekspert kraudsorsingi
Kim javob beradi?	Jurnalist tanlagan shaxslar	Avvaldan chegaralangan guruh a’zolari	Malaka shartiga mos, oldindan shaxsma-shaxs tanlanmagan shaxslar
Kirish tartibi	Shaxsiy taklif	Guruh a’zoligi bilan chegaralanadi	Ochiq yoki hammaga ma’lum malaka shartlari asosida
Javob tashabbusi	Individual so‘rovga javob	Guruh ichida o‘zini taklif qilish	Chaqiriqqa mustaqil javob berish
Modeldagi maqomi	Ekspert kraudsorsingi emas	Chegaralangan hamkorlik; ochiq modeldan alohida	Beshta aniqlash belgisiga mos

Yopiq professional guruhdagi umumiy so‘rov ko‘pchilikdan bilim olishga xizmat qiladi, lekin mazkur maqolada ochiq ekspert kraudsorsingi bilan aynanlashtirilmaydi. Bu tanlov guruh ichidagi hamkorlikni qadrsizlantirmaydi; tasnifning chegarasini aniq saqlaydi. Agar guruhga kirish tegishli mutaxassislar uchun ochiq bo‘lsa yoki chaqiriq tashqariga tarqatilib, tashqi javoblar ham qabul qilinsa, holatni ochiq model mezonlari bo‘yicha qayta baholash mumkin.

Tarmoqli izlash esa uchta shakldan faqat bittasiga tenglashtirilmaydi. Tavsiya so‘rash, professional hamjamiyatdan foydalanish yoki so‘rovni boshqa guruhga uzatish individual tanlovga ham, ochiq chaqiriqqa ham olib kelishi mumkin. Shunday qilib, tarmoq ekspertga yetib borish yo‘lini, ochiqlik esa javob berish huquqi qanday belgilanganini ifodalaydi.

Turdosh tushunchalar bilan munosabat. Ekspert kraudsorsingi bilan UGC, fuqarolik va ishtirokiy jurnalistika bir-birini mutlaqo inkor etuvchi toifalar emas. Ular turli savollarga javob beradi: UGC kontentni kim yaratganini; fuqarolik jurnalistikasi fuqarolarning mustaqil axborot faoliyatini; ishtirokiy jurnalistika esa yangilik ishlab chiqarishda ishtirok munosabatlarini ifodalaydi [Domingo et al., 2008: 332–336; Deuze et al.,

2007: 322–323]. Ekspert kraudsorsingi ushbu muhitda bilimni qanday jalb qilishga doir mexanizmdir.

4-jadval

Ekspert kraudsorsingining turdosh tushunchalar bilan munosabati

Tushuncha	Tahlil markazi	Ekspert kraudsorsingi bilan aloqasi
Ekspert izohi	Mutaxassis bildirgan mulohaza	Individual suhbat yoki ochiq chaqiriq orqali olinishi mumkin.
UGC	Foydalanuvchi yaratgan material	Ekspert javobi foydalanuvchi materiali ham bo‘lishi mumkin; barcha UGC ekspert bilimini talab qilmaydi.
Fuqarolik jurnalistikasi	Fuqaroning axborot to‘plash va yoritish faoliyati	Kraudsorsingdan foydalanishi mumkin; ekspertning mustaqil jurnalist bo‘lishi shart emas.
Ishtirokiy jurnalistika	Auditoriyaning jurnalistik jarayondagi hissasi	Ekspert kraudsorsingi ishtirokning maqsadli bilim jalb etish shakli sifatida talqin qilinadi.
Jurnalistik kraudsorsing	Ochiq vazifaga auditoriya resurslarini jalb etish	Ekspert kraudsorsingida resurs maxsus bilim va tajriba bilan aniqlashtiriladi.
Ekspert mediakontenti	Ekspert bilimiga tayangan mahsulot	Mahsulot turi uning yaratilishida kraudsorsing qo‘llanganini o‘z-o‘zidan bildirmaydi.

4-jadvaldagi tushunchalar jurnalistik faoliyatning turli jihatlarini ifodalaydi. Ekspert izohi va ekspert mediakontenti yaratilgan mahsulotni tavsiflaydi. UGC atamasi materialni kim yaratganiga ishora qiladi. Fuqarolik va ishtirokiy jurnalistika esa axborot to‘plash va yoritishda fuqaro yoki auditoriya qanday qatnashishini tushuntiradi.

Bu farqni bir misolda ko‘rish mumkin. Jurnalist o‘zi tanlagan iqtisodchidan narxlar o‘sishi sabablarini tushuntirishni so‘rasa, ekspertni individual tartibda jalb qilgan bo‘ladi. Tahririyat ayni savolni raqamli platformada ochiq e’lon qilsa va unga mavzu bo‘yicha bilimga ega, oldindan shaxsma-shaxs tanlanmagan mutaxassislar javob bera olsa, bu ekspert kraudsorsingidir. Har ikki holatda o‘quvchi iqtisodchining izohini o‘qiydi. Jarayonni tasniflash uchun esa izoh qanday olinganini bilish kerak. Ochiq chaqiriqqa javoban iqtisodchi o‘zi yozib yuborgan sharh bir vaqtning o‘zida foydalanuvchi yaratgan material ham bo‘lishi mumkin.

Ekspert bilimining ochiq chaqiriq orqali jalb etilganini aniqlash uning jurnalistik materialda foydalanishga yaroqliligini hali tasdiqlamaydi.

Buning uchun javob bergan shaxsning mavzuga mos ekspertlik vakolati hamda u taqdim etgan axborotning daliliy asosi alohida baholanishi zarur. Birinchi darajada shaxsning aynan muhokama qilinayotgan masala yuzasidan ekspertlik vakolati baholanadi. Ikkinchi darajada uning javobidagi faktlar, dalillar va xulosalarning asosi tekshiriladi. Bu ikki tekshiruv doim ketma-ket bajarilishi shart emas: jurnalist hujjatlarni o‘rganish jarayonida ekspertga qo‘shimcha savol bilan qaytishi mumkin. Shu sababli “ikki darajali” atamasini qo‘llaymiz.

5-jadval

Ekspertlik vakolatini baholash mezonlari

Mezon	Tekshiriladigan jihat	Talqin chegarasi
Mavzuga mos ixtisoslashuv	Tadqiqot yoki amaliy faoliyatning savolga aloqasi	Umumiy obro‘ tor masaladagi vakolatni kafolatlamaydi.
Ta’lim va tayyorgarlik	Diplom, sertifikat, ilmiy daraja	Yakka holda yetarli emas.
Kasbiy tajriba	Bajarilgan ishlar va amaliy faoliyat	Tajribaning davomiyligi bilan birga mazmuni tekshiriladi.
Tasdiqlanadigan natijalar	Nashrlar, loyihalar, ishlanmalar	Natijalar mavzuga aloqador bo‘lishi kerak.
Kasbiy mansublik	Tashkilot yoki professional hamjamiyat bilan aloqa	Qo‘shimcha tekshiruv manbayi; majburiy ekspertlik sharti emas.

Jadval Hetmański hamda Carpenter va Kanver yondashuvlaridan moslashtirilgan tahliliy vositadir [Hetmański, 2018: 11–15; Carpenter& Kanver, 2017: 198–199]. U universal ball shkalasi yoki ekspertlikni avtomatik tasdiqlaydigan ro‘yxat emas. Masalan, ilmiy darajasi bo‘lmagan tajribali amaliyotchi muayyan texnologik muammoni yaxshi bilishi mumkin; boshqa sohada yuqori ilmiy maqomga ega shaxs esa shu savol uchun mos kelmasligi mumkin.

Ikkinchi darajada faktik da’vo bilan talqin yoki prognoz farqlanadi. Raqam, sana va hujjatga doir da’volar mustaqil dalillar bilan solishtiriladi. Prognozning esa hali yuz bermagan natijasini “haqiqat” sifatida tasdiqlab bo‘lmaydi; bunda uning farazlari, daliliy asosi va noaniqligi ochib beriladi. Ekspertning ishonch bilan gapirishi dalilning o‘rnini bosmaydi. Mualliflik modelida aynan shu nuqta ekspertlik vakolati, manba ishonchliligi va axborotning haqqoniyligini amaliy jihatdan ajratadi.

Manfaatlar to‘qnashuvi ushbu ikki darajani kesib o‘tuvchi etik tekshiruvdir. Moliyaviy, kasbiy yoki siyosiy aloqa ekspertning bilimini avtomatik inkor etmaydi, biroq uning fikrini talqin qilish uchun muhim bo‘lishi mumkin. Shu sababli bunday aloqalar aniqlanadi va zarur holatda auditoriyaga ochiqlanadi. Javobdan foydalanish shartlari, ism va lavozimni ko‘rsatish, anonimlik, tahrirlash chegarasi, mualliflik huquqi va shaxsiy ma’lumotlar bilan ishlash tartibi oldindan kelishiladi.

Olti bosqichli tahririyat modeli. Taklif etilayotgan model amaliyotda sinovdan o‘tgan universal algoritm emas. U ochiq ekspert chaqirig‘ini rejalashtirish va baholash uchun nazariy asoslangan ish ketma-ketligidir.

1. Axborot ehtiyojini aniqlash. Jurnalist qaysi jihatni o‘zida mavjud manbalar bilan tushuntira olmayotganini va nima uchun maxsus bilim zarurligini belgilaydi.

2. Vazifa va ishtirok shartlarini shakllantirish. Savol, javob formati, muddat, malaka talabi, foydalanish maqsadi va rag‘bat shartlari aniq yoziladi.

3. Ochiq chaqiriqni tarqatish. Tegishli mutaxassislarga yetib boradigan kanallar tanlanadi; javob berishning amaliy imkoniyati baholanadi.

4. Ekspert va axborotni alohida tekshirish. Shaxsning mavzuga mos vakolati hamda javobning daliliy asosi o‘rganiladi; zarur bo‘lsa, aniqlashtiruvchi savollar yuboriladi.

5. Tahririyat tanlovi. Javoblar mavzuga mosligi, asoslanganligi va tushunarliligi bo‘yicha saralanadi. Qarashlar xilma-xilligi dalilsiz fikrga teng vazn berish talabi sifatida talqin qilinmaydi.

6. Natijadan foydalanish va qayta aloqa. Tanlangan bilim jurnalistik mahsulotga kiritiladi, manba va cheklovlar ko‘rsatiladi. Javoblar yetarli bo‘lmasa, nashrdan voz kechish yoki vazifani qayta tuzish mumkin.

Jarayon chiziqli yakunlanishi shart emas. Tekshiruvdan keyin savolning o‘zi noto‘g‘ri qo‘yilgani aniqlansa, ikkinchi bosqichga qaytiladi. Chaqiriq kerakli mutaxassislarga yetib bormasa, tarqatish kanali qayta ko‘rib chiqiladi. Biz uchun muhim natija har qanday sharoitda material chiqarish emas, qaysi bilimdan nima sababli foydalanilganini izohlash imkoniyatidir.

Natijalar muhokamasi

Taklif etilgan yondashuvning asosiy afzalligi jarayon haqidagi hukm bilan sifat haqidagi hukmni ajratishidadir. Shartli vaziyatni olaylik: tahririyat ochiq sahifada muayyan soha mutaxassislariga savol berdi, ammo kelgan javoblarni tekshirmay nashr qildi. Aniqlash belgilari mavjud bo‘lsa, bu ekspert kraudsorsingi sifatida tasniflanadi; tahririy baholashda esa tekshiruv talabiga javob bermagan deb topiladi. Aksincha, puxta

tekshirilgan individual intervyu sifatli jurnalistik ish bo‘lsa ham, ochiq chaqiriq yo‘qligi sababli kraudsorsing hisoblanmaydi. Bu farqlash kelgusidagi empirik tahlil uchun ham zarur. Faqat muvaffaqiyatli, tekshirilgan va nashr etilgan holatlarni kraudsorsing deb tanlasak, muvaffaqiyatsiz yoki xatoli amaliyotlar tanlanmadan chiqib ketadi. Natijada usulning samaradorligi oldindan ijobiy baholangan bo‘ladi. Bizning modelimiz jarayonni avval tashkiliy belgilar bo‘yicha aniqlash, keyin uning natijasi va sifatini mustaqil baholashni ko‘zda tutadi.

Rossiya va Qozog‘iston manbalari ingliz tilidagi nazariy doirani boshqa muammolar bilan to‘ldirdi: fuqarolik ishtiroki, ekspert hamjamiyati va amaliy kirish shartlari. Biroq ularni yagona “MDH modeli” sifatida birlashtirish asosli emas. Korpusda turli mamlakatlar, davrlar va faoliyat sohalariga oid ishlar tanlangan. Shu sababli ularning o‘xshash jihatlari konseptual qiyos uchun xizmat qiladi, mamlakatlar jurnalistikasining bir xil ishlashini ko‘rsatmaydi.

O‘zbekiston internet nashrlarida modelni sinash uchun ochiq chaqiriq matni, ekspertlarni saralash tartibi va yakuniy material o‘rtasidagi bog‘lanishni kuzatish mumkin. Bunda chaqiriqni ko‘rganlar va javob berganlar doirasi, yangi manbalarning ulushi, javoblarning qabul yoki rad etilish sabablari, tekshiruvga sarflangan vaqt hamda manfaatlar to‘qnashuvi qaydlari o‘rganilishi lozim. Bular mazkur ishda o‘lchangan natijalar emas, keyingi tadqiqot uchun taklif etilayotgan ko‘rsatkichlardir.

Xulosa

Raqamli jurnalistikada ekspert bilimidan foydalanishning o‘ziga xosligi mutaxassisni izlash bosqichidayoq ko‘rinadi. Jurnalist o‘ziga tanish manbaga savol berganda kimning tajribasiga tayanishini oldindan belgilaydi. Ochiq chaqiriqda esa u avval yoritilishi kerak bo‘lgan masalani qo‘yadi. Shu masalani tushuntira oladigan mutaxassis, jumladan, tahririyat ilgari murojaat qilmagan amaliyotchi ham o‘z tajribasini taklif etishi mumkin. Biz ekspert kraudsorsingini shu asosda beshta belgining birligi orqali aniqlashni taklif qilamiz. Bular jurnalistik tashabbus, aniq vazifa, ochiq raqamli chaqiriq, maxsus bilimga ehtiyoj va ushbu bilimdan jurnalistik material tayyorlashda foydalanish maqsadidir.

Taklif etilgan tasnifda ochiqlikni aniqlash uchun kimlar savolni ko‘rishi va unga javob berishi mumkinligini hisobga olamiz. Masalan, yopiq kasbiy guruhga yuborilgan so‘rovga o‘nlab mutaxassis javob berishi mumkin, ammo unda qatnashish imkoniyati guruh a’zolari doirasi bilan chegaralanadi. Aksincha, barcha tegishli mutaxassislar uchun e’lon qilingan chaqiriqqa bitta javob kelishi ham mumkin. Shu sababli tadqiqotchi nashrdagi ekspertlar sonidan kelib chiqib hukm chiqarishdan avval chaqiriq matni va uning tarqatilish shartlarini o‘rganishi zarur.

Tarmoqli izlash ham ayni shu shartlarga qarab individual tanlovga, chegaralangan guruh bilan ishlashga yoki ochiq murojaatga xizmat qiladi.

Maqolaning nazariy hissasi ekspert bilimini jalb etish usuli bilan undan foydalanish sifatini alohida baholash imkonini berishidadir. Tahririyatning ochiq chaqiriq orqali mutaxassis topgani uning javobini e'lon qilish uchun hali kifoya qilmaydi. Jurnalist dastlab mutaxassisning kasbiy tajribasi muhokama qilinayotgan masalaning qaysi jihatiga daxldorligini aniqlaydi. Javobdagi raqamni birlamchi hujjat bilan solishtiradi, prognoz bildirilgan bo'lsa, u qanday farazga tayanishini so'raydi. Ba'zan aynan hujjat bilan ishlash davomida ekspertga qayta murojaat qilishga to'g'ri keladi. Jurnalist mutaxassisning vakolatini uning mavzuga doir tajribasi asosida baholaydi. Javobdagi har bir muhim da'voni esa uni tasdiqlovchi manbalar bilan solishtiradi.

Olti bosqichli modelda bu mulohazalar tahririyat qabul qiladigan qarorlar bilan bog'landi. Savolni e'lon qilishdan oldin jurnalist qanday bilimga ehtiyoj borligini hamda ekspertning javobidan qayerda va qanday foydalanilishini aniqlashtiradi. Javob kelgach, uni saralash, zarur hollarda manfaatlar to'qnashuvini ochiqlash va ekspert fikrini o'z mazmuniga mos tarzda berish mas'uliyatini tahririyat o'z zimmasiga oladi. Kelgan javoblarning hech biri yetarlicha asoslanmasa, ulardan foydalanmaslik ham tahririy qarordir. Bunday holatlarni ham tahlilga kiritish ochiq chaqiriq amaliyotini faqat muvaffaqiyatli nashrlar misolida baholashdan saqlaydi.

Modelning amaliy ahamiyatini O'zbekiston internet nashrlari misolida tekshirish uchun bir masala yuzasidan e'lon qilingan chaqiriqni yakuniy material bilan qiyoslash va jurnalistdan muayyan javobni nima sababdan tanlaganini so'rash lozim. Bunday qiyos ochiq chaqiriq orqali tahririyat o'zi ilgari murojaat qilmagan mutaxassisni topgan-topmaganini ko'rsatadi. Yakuniy material tahlili esa shu mutaxassisning tajribasi masalaning qaysi jihatini yoritishga yordam berganini aniqlash imkonini beradi. Bizningcha, ekspert kraudsorsingining jurnalistik qiymati aynan shu yerda namoyon bo'ladi: mutaxassis o'zi bilgan jihatni tushuntiradi, jurnalist esa bu bilimning daliliy asosini ham, uning qo'llanish chegarasini ham o'quvchiga ko'rsata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Aitamurto T. Crowdsourcing as a knowledge-search method in digital journalism: Ruptured ideals and blended responsibility // Digital Journalism. — 2016. — Vol. 4, № 2. — P. 280–297. — DOI: 10.1080/21670811.2015.1034807.

Albæk E. The interaction between experts and journalists in news journalism // Journalism. — 2011. — Vol. 12, № 3. — P. 335–348. — DOI: 10.1177/1464884910392851.

Brabham D. C. Crowdsourcing as a model for problem solving: An introduction and cases // Convergence: The International Journal of Research into New Media Technologies. — 2008. — Vol. 14, № 1. — P. 75–90. — DOI: 10.1177/1354856507084420.

Carpenter S., Kanver D. Journalistic expertise: A communicative approach // Communication and the Public. — 2017. — Vol. 2, № 3. — P. 197–209. — DOI: 10.1177/2057047317720218.

Deuze M., Bruns A., Neuberger C. Preparing for an age of participatory news // Journalism Practice. — 2007. — Vol. 1, № 3. — P. 322–338. — DOI: 10.1080/17512780701504864.

Domingo D., Quandt T., Heinonen A., Paulussen S., Singer J. B., Vujnovic M. Participatory journalism practices in the media and beyond: An international comparative study of initiatives in online newspapers // Journalism Practice. — 2008. — Vol. 2, № 3. — P. 326–342. — DOI: 10.1080/17512780802281065.

Estellés-Arolas E., González-Ladrón-de-Guevara F. Towards an integrated crowdsourcing definition // Journal of Information Science. — 2012. — Vol. 38, № 2. — P. 189–200. — DOI: 10.1177/0165551512437638.

Hermida A., Thurman N. A clash of cultures: The integration of user-generated content within professional journalistic frameworks at British newspaper websites // Journalism Practice. — 2008. — Vol. 2, № 3. — P. 343–356. — DOI: 10.1080/17512780802054538.

Hetmański M. Expert knowledge: Its structure, functions and limits // Studia Humana. — 2018. — Vol. 7, № 3. — P. 11–20. — DOI: 10.2478/sh-2018-0014.

Howe J. The rise of crowdsourcing // Wired. — 2006. — Vol. 14, № 6. — URL: https://www.wired.com/2006/06/crowds/.

Kaminskaia T. L., Erokhina O. V. Expert media content: Creation and use in modern media // Theoretical and Practical Issues of Journalism. — 2023. — Vol. 12, № 1. — P. 24–40. — DOI: 10.17150/2308-6203.2023.12(1).24-40.

Kholmatova S. B. Crowdsourcing and audience participation: Theoretical boundaries and communication models in modern journalism // Foreign Languages in Uzbekistan. — 2026. — Vol. 12, № 1 (66). — P. 363–383. — DOI: 10.36078/1767726149.

Muthukumaraswamy K. When the media meet crowds of wisdom: How journalists are tapping into audience expertise and manpower for the processes of newsgathering // Journalism Practice. — 2010. — Vol. 4, № 1. — P. 48–65. — DOI: 10.1080/17512780903068874.

Reich Z. Source credibility as a journalistic work tool: Between visceral and discretional judgment // Journalism Practice. — 2011. — Vol. 5, № 1. — P. 51–67. — DOI: 10.1080/17512781003760519.

Snyder H. Literature review as a research methodology: An overview and guidelines // Journal of Business Research. — 2019. — Vol. 104. — P. 333–339. — DOI: 10.1016/j.jbusres.2019.07.039.

Torraco R. J. Writing integrative literature reviews: Guidelines and examples // Human Resource Development Review. — 2005. — Vol. 4, № 3. — P. 356–367. — DOI: 10.1177/1534484305278283.

Whittemore R., Knafl K. The integrative review: Updated methodology // Journal of Advanced Nursing. — 2005. — Vol. 52, № 5. — P. 546–553. — DOI: 10.1111/j.1365-2648.2005.03621.x.

Базанова А. Е., Тулисова В. А. Возможности использования краудсорсинга в гражданской журналистике // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Литературоведение. Журналистика. — 2014. — № 4. — С. 114–118. — URL: https://repository.rudn.ru/ru/records/article/record/16324/.

Каминская Т. Л., Ерохина О. В. Медиакраудсорсинг и медиакраудфандинг в цифровой среде как факторы нового комьюнити для СМИ // Медиалингвистика. — 2022. — Т. 9, № 2. — С. 96–112. — DOI: 10.21638/spbu22.2022.202.

Мухаметкалиева Е. М., Бастаубаева А. Ж. Вовлечение общественности в нормотворческую деятельность Казахстана посредством использования краудсорсинга // Вопросы государственного и муниципального управления. — 2018. — № 3. — С. 138–163. — DOI: 10.17323/1999-5431-2018-0-3-138-163.

References

Aitamurto, T. (2016). Crowdsourcing as a knowledge-search method in digital journalism: Ruptured ideals and blended responsibility. *Digital Journalism, 4*(2), 280–297. https://doi.org/10.1080/21670811.2015.1034807

Albæk, E. (2011). The interaction between experts and journalists in news journalism. *Journalism, 12*(3), 335–348. https://doi.org/10.1177/1464884910392851

Brabham, D. C. (2008). Crowdsourcing as a model for problem solving: An introduction and cases. *Convergence: The International Journal of Research into New Media Technologies, 14*(1), 75–90. https://doi.org/10.1177/1354856507084420

Carpenter, S., & Kanver, D. (2017). Journalistic expertise: A communicative approach. *Communication and the Public, 2*(3), 197–209. https://doi.org/10.1177/2057047317720218

Deuze, M., Bruns, A., & Neuberger, C. (2007). Preparing for an age of participatory news. *Journalism Practice, 1*(3), 322–338. https://doi.org/10.1080/17512780701504864

Domingo, D., Quandt, T., Heinonen, A., Paulussen, S., Singer, J. B., & Vujnovic, M. (2008). Participatory journalism practices in the media and beyond: An international comparative study of initiatives in online newspapers. *Journalism Practice, 2*(3), 326–342. https://doi.org/10.1080/17512780802281065

Estellés-Arolas, E., & González-Ladrón-de-Guevara, F. (2012). Towards an integrated crowdsourcing definition. *Journal of Information Science, 38*(2), 189–200. https://doi.org/10.1177/0165551512437638

Hermida, A., & Thurman, N. (2008). A clash of cultures: The integration of user-generated content within professional journalistic frameworks at British newspaper websites. *Journalism Practice, 2*(3), 343–356. https://doi.org/10.1080/17512780802054538

Hetmański, M. (2018). Expert knowledge: Its structure, functions and limits. *Studia Humana, 7*(3), 11–20. https://doi.org/10.2478/sh-2018-0014

Howe, J. (2006). The rise of crowdsourcing. *Wired, 14*(6). https://www.wired.com/2006/06/crowds/

Kaminskaia, T. L., & Erokhina, O. V. (2023). Expert media content: Creation and use in modern media. *Theoretical and Practical Issues of Journalism, 12*(1), 24–40. https://doi.org/10.17150/2308-6203.2023.12(1).24-40

Kholmatova, S. B. (2026). Crowdsourcing and audience participation: Theoretical boundaries and communication models in modern journalism. *Foreign Languages in Uzbekistan, 12*(1/66), 363–383. https://doi.org/10.36078/1767726149

Muthukumaraswamy, K. (2010). When the media meet crowds of wisdom: How journalists are tapping into audience expertise and manpower for the processes of newsgathering. *Journalism Practice, 4*(1), 48–65. https://doi.org/10.1080/17512780903068874

Reich, Z. (2011). Source credibility as a journalistic work tool: Between visceral and discretional judgment. *Journalism Practice, 5*(1), 51–67. https://doi.org/10.1080/17512781003760519

Snyder, H. (2019). Literature review as a research methodology: An overview and guidelines. *Journal of Business Research, 104*, 333–339. https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2019.07.039

Torraco, R. J. (2005). Writing integrative literature reviews: Guidelines and examples. *Human Resource Development Review, 4*(3), 356–367. https://doi.org/10.1177/1534484305278283

Whittemore, R., & Knafl, K. (2005). The integrative review: Updated methodology. *Journal of Advanced Nursing, 52*(5), 546–553. https://doi.org/10.1111/j.1365-2648.2005.03621.x

Bazanova, A. E., & Tulisova, V. A. (2014). Vozmozhnosti ispol'zovaniya kraudsorsinga v grazhdanskoi zhurnalistike [Possibilities of using crowdsourcing in citizen journalism]. *Vestnik Rossiiskogo universiteta druzhby narodov. Seriya: Literaturovedenie. Zhurnalistika*, (4), 114–118. https://repository.rudn.ru/ru/records/article/record/16324/

Kaminskaia, T. L., & Erokhina, O. V. (2022). Mediakraudsorsing i mediakraudfanding v tsifrovoi srede kak faktory novogo kom'yuniti dlya SMI [Media crowdsourcing and media crowdfunding in the digital environment as factors in forming a new community for the media]. *Medialingvistika, 9*(2), 96–112. https://doi.org/10.21638/spbu22.2022.202

Mukhametkalieva, E. M., & Bastaubaeva, A. Zh. (2018). Vovlechenie obshchestvennosti v normotvorcheskuyu deyatel'nost' Kazakhstana posredstvom ispol'zovaniya kraudsorsinga [Public involvement in Kazakhstan's rulemaking activities through crowdsourcing]. *Voprosy gosudarstvennogo i munitsipal'nogo upravleniya*, (3), 138–163. https://doi.org/10.17323/1999-5431-2018-0-3-138-163